



**EOC**  
EUROASIAN  
ONLINE  
CONFERENCES

# ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON  
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND  
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object  
identifier

eoconf.com - from 2024



**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION:** a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 3

**Languages of publication:** Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





## **Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga oid bilimlarini shakllantirishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish texnologiyasi.**

**G‘ayviyeva Zahro Roziq qizi**

Iqtisodiyot vapedagogika universiteti talabasi

Dunyoda yuzaga kelgan qator tendensiyalar ta‘lim-tarbiya jarayonida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish o‘zgacha tus olishiga sabab bo‘lmoqda. Mamlakatimizda maktabgacha yoshidagi bolalarni tabiatga oid bilimni ommaviy axborot vositalari asosida shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish masalasiga dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Shu bois maktabgacha yoshidagi bolalarni shaxs sifatida rivojlantirish va uning tabiatga oid bilimi va dunyoqarashini innavatsion axborot texnologiyalari, axborot-kommunikatsion texnologiyalari hamda ommaviy axborot vositalari asosida shakllantirish tizimiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda axborot sohasida ham jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Axborotlashtirishning milliy tizimi yaratildi, zamonaviy axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi o‘rni kuchaytirildi, fuqarolarning axborotlarga bo‘lgan ehtiyojlari to‘laroq qondirila boshlandi, jahon axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengaydi. Ayni payt ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan maktabgacha yoshidagi bolalarda tabiatga oid bilimlarini shakllantirishda foydalanishni taqazo qilmoqda.

Maktabgacha ta‘lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta‘minlash pedagog va mutaxassislarining malaka darajalarini yuksaltirish masalalari O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq maktabgacha ta‘lim muassasalarini tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi. O‘zbekistonda yuz berayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jamiyat axborot muhitining keskin sifat va miqdor jihatidan o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Bugungi kunda milliy taraqqiyotimizning hech bir tarmog‘i zamonaviy va samarali tashkil qilingan axborot infratuzilmasisiz faoliyat ko‘rsata olmaydi. Hozirda mamlakatimizdagi ommaviy axborot vositalarining soni 1392 tani tashkil etadi. Bular 689 ta gazeta, 283 ta jurnal hamda 100 ta TV va radiolardir. Bular qatorida respublikamizda nodavlat OAV tez sur‘atlar rivojlanmoqda. Telekanal, radiokanallardan tashqari alloqachon veb-saytlar ham OAV sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilmoqda. 2018 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra 304 ta veb-sayt ro‘yxatdan o‘tkazildi. Tele- va radio kanallar hamda veb-saytlarning 79 foizi nodavlat ommaviy axborot vositasidir. Hozirda mavjud nodavlat bosma OAV jami bosma OAVning 58,7 foizini tashkil etadi. Agar 1990 yilda Respublikada 9 ta nashriyot faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, bugun ularning umumiy soni 108 taga (2018 yil 1 yanvar holatiga) yetgan. Yaratilayotgan keng imkoniyat sababli, so‘nggi yillarga kelib matbaa korxonalarining soni ham ortib bordi. 1990 yilda Respublikada 149 ta





bosmaxona faoliyat ko'rsatgan, bugun ularning soni 1819 tani tashkil etadi. Yosh avlod tarbiyasi va ularning tabiiy-ilmiy bilim va dunyoqarashini shakllantirish masalasi insoniyatni barcha davrlarda qiziqtirib kelgan. Insonlar doimo tabiatdagi hodisalar, ularning sodir bo'lishi, fasllar o'zgarishi, kun va tunning almashishi, hisob-kitobni bilishni istaganlar. Ular bu hodisalarga ba'zan qiziqsalar, ba'zan ulardan qo'rqanlar va ularni ilohiylashtirganlar. Shunday qilib insonlarning turmushda orttirgan tajribalari asosida tabiiy-ilmiy bilimlari shakllangan. Yozuvning paydo bo'lishi tabiiy-ilmiy bilimlarning shakllanishida ayniqsa muhim o'rin tutadi. Tabiiy-ilmiy bilimlar bilan shug'ullanish va uning ilmiy asoslarini yaratish bizning mashhur ulug' bobokalonlarimiz Abu Nasr Farobiy [17;224], Al-Beruniy [12;488], Al-Xorazmiy [29;464], Abu Ali ibn Sino [18;182], Mirzo Ulug'bek [29;464], Mirzo Bobur [11;286] kabilarning asarlarida batafsil yoritilgan. Ular o'z asarlarida olamning paydo bo'lishi, tabiat va uning o'ziga xos jihatlari, yulduzlar harakati kabi tabiiy-ilmiy tadqiqotlarni olib bordilar.

Shaxs dunyoqarashini shakllantirish muammosining talablari yozma manbalar "Avesto"[4;400], "Qur'oni karim" [26;617]da ham o'z ifodasini topgan.

Yozma manba "Avesto"da yoshlarning dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim omil sifatida ilmu-ma'rifat ilgari suriladi. Unga ko'ra "Har bir kishini shunday tarbiyalash zarurki,- deyiladi "Avesto" da, -u avvalo yaxshi o'qishni so'ngra yozishni o'rganib, eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin" [4;400].

Islom ta'limotida esa kishilar dunyoqarashini bezovchi omil yaxshilikdir deyiladi, xususan bu yaxshilik tabiatga nisbatan ham qo'llanilishi lozimligi aytib o'tiladi. "Kim biron chiroyli amal qilsa, unga o'n barobar qilib qaytarilur" (An'om surasi, 160-oyat) [26;617]. Islom ta'limotida chumoliga ham ozor bermaslik; daraxt, ko'chatlarni ekish, suvni ifloslantirmaslik, inson tanasini pok va ozoda saqlash vojibliigi ko'rsatiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. -Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 510 b.
2. Манойло А.В., Петренко А.И., Фролов Д.Б. Государственная информационная политика в условиях информационно-психологической войны. 2-изд. М.: Горячая линия – Телеком. 2006, 203 б.
3. Maraximov A., Rahmonqulova S. Internet va undan foydalanish asoslari. – Toshkent: Asia Spai, 2001. – 176 b.

